

BALIQLAR MIGRATSIYASI SABABLARI, EKOLOGIK GURUHLARI VA BALIQLARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti ikkinchi bosqich talabalari
Turg‘untosheva Ruxsora Boxodir qizi
Mirzaarapova Durdonaxon Doniyorbek qizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xordalilar (Chordata) tipi, Boshskeletlilar (Craniata) kenja tipiga kiruvchi baliqlarning iqtisodiy ahamiyati, migratsiyasining kelib chiqish sabablari va ekologik guruhlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: baliqlar, xordalilar, boshskeletlilar, yon chiziqlar, sovuqqonli, fiziologik, ekologik guruhlari, pelagik, abissal, litoral, teleskop, migratsiya

Аннотация: В статье представлены сведения о хозяйственном значении, причинах миграции и экологических группах рыб, принадлежащих к типу Хордовые и подтипу Краниата.

Ключевые слова: рыбы, хордовые, головоногие моллюски, боковые линии, хладнокровные, физиологические, экологические группы, пелагические, абиссальные, литоральные, телескоп, миграция.

Abstract: This article provides information about the economic importance, reasons for migration, and ecological groups of fish belonging to the Chordata phylum and the Craniata subphylum.

Key words: fishes, chordates, cephalopods, lateral lines, cold-blooded, physiological, ecological groups, pelagic, abyssal, littoral, telescope, migration

Baliqlar- Xordalilar (Chordata) tipi, Boshskeletlilar (Craniata) yoki umurtqalilar (Vebtebrata) kenja tipiga kiruvchi hayvonlardir.

Baliqlar suv muhitida yashovchi hayvonlar bo‘lib, nafas olishi jabra orqali ayrim turlarida esa o‘pka ham rivojlangan. Tana shakli suyri, shu sababli ham suvda juda yaxshi harakatlanadi, yon chiziqlari orqali esa suv to‘lqinlarini sezadi va suv to‘lqinlariga qarab mo‘ljalladi. Ularning bunday tuzilishi har tomonlama suv muhitida yashashga va ozuqalar topib, harakatlanishga moslashgan.

Baliqlar sovuqqonli hayvon hisoblanib, tana harorati tashqi muhit haroratiga bog‘liq. Shuning uchun ham yashash sharoitidagi suvning harorati, tuz miqdori, bosim baliqlarga fiziologik jihatdan ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida ularning ekologiyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Baliqlar suv muhitining turli sharoitlarida

yashaganliklari uchun ularning ekologik guruhlari ham turlicha bo‘ladi. Yashash sharoitiga ko‘ra 3 ta asosiy ekologik guruhlarga bo‘linadi. Bular:

1. Pelagik
2. Litoral
3. Abissal

Pelagik baliqlar guruhiga kiruvchi baliqlar suvning 150- 200 m chuqurlikkacha bo‘lgan suv bag‘rida hayot kechiradi. Ushbu guruhga kiruvchi baliqlar shakli duksimon bo‘lib, juda tez suzadi va juda ham faol hisoblanadi. Pelagik guruhga kiruvchi baliqlarga: akulalar, lososlar, sardinalar, seldlar, yelkan baliqlar, treskalar, uchar baliqlar kiradi.



Litoral baliqlar guruhiga kiruvchi baliqlar suv havzalarining qirg‘oqlarida, sohil yaqinlarida va suv tubida hayot kechiradi. Suv tubidagi toshlar, marjon orollaridagi kovaklar baliqlar uchun boshpana vazifasini o‘taydi. Ular bu yerlarda oziq topadi, yashaydi va ko‘payadi. Ushbu guruhga kiruvchi baliqlar shakli pelagik baliqlar guruhidan farqli o‘laroq har xil tuzilgan va kam harakatchan hisoblanadi. Litoral guruhga kiruvchi baliqlar bular: ilon baliqlar, skatlar, kambalalar, dengiz shayton va dengiz buqacha baliqlari kiradi.

Abissal baliqlar guruhiga kiruvchi baliqlar asosan okean- dengizlarning tubida yashaydi. Bunday sharoitda yashovchi baliqlarning ko‘zlari ko‘r, suv qorong‘uligini sezuvchi teleskop tipida tuzilgan ko‘zlari bo‘ladi, yoki o‘zlaridan yorug‘lik chiqaradigan xususiyatga ega bo‘ladi. Bu orqali ular o‘zlariga ozuqa topishadi.

Baliqlarning asosiy belgilaridan biri bu ularning migratsiyasidir.

Migratsiyaning kelib chiqish sabablari bu ularning ko‘payish uchun okean-dengizlardan daryoga, daryolardan okean-dengizlarga o‘tishi hisoblanadi. Misol



uchun: ilonbaliqlar Afrika daryolaridan Atlantika okeaniga uvildiriq tashlash uchun o‘tishadi.



Migratsiyaning sabablaridan yana biri bu ularning qishlashi. Zog'ora baliq, laqqa, oqcha baliq kabilar daryolar quyiladigan chuchuk suvli joylardan uzoqqa ketmay, daryolarning quyiladigan joylariga kelib qishlashadi.

Insonlarning hayotida baliqlarning ahamiyati juda katta. Baliqlarning insonlar hayotidagi asosiy ahamiyati bu ularning oziq-ovqat mahsuloti sifatida ovlanishi. Juda ko‘p baliq turlari oziq sifatida iste‘mol qilish uchun O‘zbekistonda, nafaqat O‘zbekistonda balki jahonning turli mamlakatlarida ham iqlimlashtirilgan. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda bir qancha baliqchilik xo‘jaliklari tashkil qilingan bo‘lib, shu tariqa aholini baliqqa bo‘lgan ehtiyojlari qondirilib kelinmoqda.

Baliqlardan oziq-ovqat mahsulotidan tashqari, ko‘plab vitaminlar, baliq yog‘i kabi mahsulotlar olinadi va bular farmatsevtika sohasida ahamiyatga ega. Chunki baliqlardan olingan vitamin va baliq yog‘lari inson salomatligi uchun kerakli bo‘lgan dori vositalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zoologiya (Xordalilar 2- qism) S.Dadayev, Q. Saparov Cho'lpon nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent- 2011
2. Umurtqalilar zoologiyasi J.L. Laxanov. Toshkent- 2005
3. Zoologiya S. Dadayev, O. Mavlonov. Toshkent " Iqtisod- Moliya" 2008

